



THE ROLE OF HOMEWORK IN THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Qoraboyev Husniddin Kamolovich

She is a teacher at the Samarkand Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Educators
Email: _husniddin_1985@inbox.uz, Tel: +998 979213029

Annotation:

This article discusses the role of homework in the spiritual and moral upbringing of primary school students. The didactic potential of homework to improve the spiritual development of students is revealed.

Keywords: primary education, homework, spiritual and moral education, cooperation, spiritual maturity, pedagogical attitude, interaction, student activity, results.

O'zbekiston Respublikasida ta'lismi ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustuvor deb e'lon qilingan va ta'lismi sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari ishlab chiqilib, hayotga tadbiq etilmoqda. Jumladan, boshlang'ich ta'larning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli vazifalar, ilmiy asoslangan g'oyalilar, yangicha yondashuvlar o'zining ijobiy samarasini bermoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Mustaqil fikrlashga, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash" kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 29- apreldagi PF- 5712 sonli Farmoniga asosan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida "Davlat ta'lismi standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o'qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o'quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo'lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda", -deb takidlangan.

Konsepsiya xalq ta'limi sohasidagi mavjud muammolarning yechimi, o'quvchining mustaqil faoliyatini tashkil etish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, tanqidiy fikrlashga o'rgatishda uyga vazifalar muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'quvchilarda mustaqil fikrlash malakasini shakllantirishda o'qish darslaridan uy vazifalarini tashkil etishning innovatsion yondashuvga asoslangan metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etishini belgilab beradi.

Mamlakatda umumiyoq o'rta ta'lismi tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'larning sifat va samaradorligini oshirish uning mazmunini takomillashtirish bilan bog'liq muammolarni o'rganishda D.Jo'rayev, Sh.Qurbanov, U.Inoyatov, R.Mavlonov, R.Ahliddinov, E.Saidhalilov, S.Turg'unovlarning ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahaniyat kasb etsa, boshlang'ich ta'lismi mazmunini takomillashtirish masalalari bilan B.Azizov, R.Nurmatova, G.Xasanova, H.Nazarova, R.Safarova, Sh.Abdullayev, B.Ma'mirovlar shug'ullangan. Boshlang'ich sinflarda grammatik va imloni o'rgatish masalalari K.Qosimova, Q.Abdullayeva, Sh.Yo'ldosheva, S.Rahmetova, E.Bekniyozova, S.Tojibekovalarning tadqiqot ishlari uslubiy qo'llanma, ilmiy maqolalarida aks etadi. Ko'plab tadqiqot ishlarida boshlang'ich ta'larning turli jihatlari tadqiq qilingan bo'lsada shuni ham ta'kidlash kerakki ta'lismi-tarbiya jarayonida o'quvchilarning uy ishlarini to'g'ri tashkil etish o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri. Ta'limda o'quvchilarning uy vazifalarini pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etish yo'llari bilan ilmda ham, amaliyotda ham etarli darajada shug'ullanilmayapti. Uy vazifalarini tashkil etishning pedagogik, psixologik va ilmiy-metodik



asoslari ishlanmagan. Shu bois pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari ta'limida ham uy vazifalarini tashkil etish borasida talabalarga yetarli darajada bilim berilmaydi. O'qituvchilar uchun bu borada ilmiy asoslangan nazariy-metodik, amaliy tavsiyalarni yetarli darajada deb bo'lmaydi. O'quvchi ma'naviy kamolotining asosi bo'lgan tafakkur va faoliyatdagi mustaqilligining darajasi uy vazifalarini bajarishda ham namoyon bo'ladi. darslarda uy vazifalarini so'rash darsning ijodiy qismiga aylantirilsa, ya'ni o'quvchining hodisa tahlili va u bilan bog'liq faktlarni umumlashtirishga bo'lgan qiziqishlari oshirish va imkoniyatlari hisobga olinsa, uy vazifasini so'rash jarayonining samaradorligi sezilarli darajada ortadi.[3.103-b] O'quvchilarning ta'lim jarayonidagi mustaqil va ijodiy faolligini oshirish, ularning bilimlarni mustaqil egallashi, o'z dunyoqarashini kengaytirishga ichki ehtiyojini uyg'otish, ma'naviy kamoloti yo'lida o'zlarining ishtirokini ta'minlash kabi qator vazifalar nafaqat dars jarayonida balki, uy vazifalari orqali ham tizimli amalga oshirish mumkin. Mazkur vazifani samarali amalga oshirish uchun uya vazifalarni to'g'ri tashkil etish lozim. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi uya vazifalarni tashkil etishda bir xillikdan qochishi kerak. Uy vazifalarining turli shakllaridan foydalanish orqali o'quvchilarda bilim olishga intilish hissini oshirish mumkin.

Maktab hayotining hamma bosqichida darslik o'quvchi uchun zarur va asosiy qo'llanma hisoblanadi. Yuqori sinflarda adabiyot fanini o'rganishda o'quvchilarning o'qishi, ularning badiiy asar yoki asar haqidagi maqolalar ustida ishslashini tashkil etish uchun o'qituvchi boshlang'ich ta'limdagi shunday faoliyat bilan bog'liq uy vazifalariga ko'proq e'tibor qaratishi kerak. Bunday topshiriqlar darslikdagi adabiy matn mazmunini uyda, mustaqil ravishda o'zlashtirib olishga, badiiy so'z mohiyatiga kirishga ko'maklashadi. [3.56- b]

Darslik bilan ishslash bo'yicha uy vazifalarining taxminiy me'yori boshlang'ich sinflarda 10–15 daqiqa. Faqat bunday topshiriqlar sinf, vaziyat va alohida o'quvchilar uchun mos bo'lishi, har bir o'quvchining intellektual imkoniyatlari doirasida berilishi, shu bilan birga topshiriqlarning bir xilligi hamda bir birini takrorlashidan qochish kerak.

Savollarga javob berish, matnning ma'lum bo'limi rejasini tuzish, o'qilgan matn yuzasidan savol-topshiriqlar tuzish, o'qituvchining savollari, qo'yilajak muammolar ustida ishslashga tayyorgarlik, asar matni asosida tezislар yaratish, sinfda taqdim etilgan reja asosida matndan materiallar ajratish va hk. shakllarda bo'lishi mumkin.[4.32-b] Uya beriladigan topshiriqlarning barchasi adabiy ta'limning bosh maqsadi asosida tashkil etilishi lozim.

O'quvchilarning uyda o'qishlari uchun beriladigan topshiriqlar, birinchi navbatda, dasturdagi o'quv materiallarini o'quvchilar chuqurroq, kengroq o'zlashtirishlarini nazarda tutadi.[4.102-b] O'quv yilining oxirida o'quvchilarga yozda (ta'til vaqtida) o'qish uchun topshiriq berilayotganda dastur doirasiga kiradigan, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishga yo'naltirilgan, bolaning yoshi va ichki olamiga mos keladigan asarlar berilsa maqsadga muvofiq.

Adabiy ta'limda uyda o'qish uchun beriladigan topshiriqlar darslikdagi o'quv materiallari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Uyda o'qish uchun beriladigan asarlar boshlang'ich maktabning 3–4-sinf o'quvchisi uchun bir yilda 12–14 ta kitobni tashkil qiladi. Bu raqamlar sirasiga darslikda parcha berilgan asarlarni ham kiritish mumkin.[3.89-b] O'qituvchi sinfdan tashqari o'qish uchun darslikda parcha berilgan asarlarni to'liq o'qishni tavsiya etishi, ayrim qo'shimcha asarlardan na'muna o'qib o'quvchilarni qiziqtirib olishi va shu asnoda ularni uyda o'qishga berishi mumkin.

Asar matni ustida ishslash uchun beriladigan uy vazifalari ham o'quvchi ma'naviy kamolotida muhim o'rinnegallaydi.

O'quvchining intensiv rivojlanishini nazarda tutgan holda unga adabiy ta'limning barcha bosqichida, har darsda uyda ishslash uchun topshiriqlar berilishi, bola uyda har kuni sinfdagidek ishlashi kerak.[3.146-b] Uy ishlarining qiyinlarini osonlari bilan va aksincha, almashtirib turish



muhim ahamiyat kasb etadi. Tinimsiz qiyin topshiriqlarni berish o‘quvchilarni zo‘riqtirgani singari, uzlusiz oson vazifalar ham ularni uy ishlariga engil qarashga o‘rgatib qo‘yadi. Uy vazifalarini bajarish uchun ajratiladigan vaqt ta’limning har bosqichida o‘quvchining yoshi, ruhiy va jismoniy xususiyatlari hamda imkoniyatlariga asoslangan holda aniqlanadi.

Uyga beriladigan topshiriqlarning umumiy hajmi, turli shakllarda, barcha o‘quv fanlari misoldida umumiy tarzda: boshlang‘ich sinflarning quyi bosqichlarida taxminan yarim soatgacha, yuqori bosqichlarida 40 – 45 daqiqagacha bo‘lmog‘i nazarda tutiladi.[3.183-b] Bunday vaqt oralig‘iga mo‘ljallangan uy ishlari maktabdagi barcha o‘quv fanlari bo‘yicha og‘zaki bajariladigan ishlar, o‘qish uchun topshiriqlar hamda yozma ishlar bilan almashtirib turiladi.

Adabiy ta’limning boshlang‘ich bosqichida o‘qilgan asarlar yuzasidan uy vazifasi sifatida:

- sinfda o‘tilgan mavzuni uyda qayta o‘qish;
- o‘qiganlarining rejasini tuzish va reja asosida qayta ijodiy hikoyalash;
- asar yuzasidan uning matnnini takrorlashga emas, mustaqil mulohaza yuritib, o‘z fikrini aytishga undovchi mantiqli savollar tuzish va ularga javob berish;
- sinfdan tashqari o‘qiladigan asarlar ustida ishlash uchun topshiriqlar berish;
- mustaqil ishlar;
- lug‘at bilan ishslash;
- yozma va og‘zaki insho;
- matnni bo‘laklarga ajratish va ularning mazmuniga mos sarlavha topish;
- asar matni qismlari bo‘yicha sarlavhalar tavsiya etib, mavjud matnni shu sarlavhalarga mos tarzda bo‘laklarga bo‘lishni talab qilish;
- har bir bo‘lakning rejasini tuzish va shu reja asosida gapirishga tayyorlanish;
- ertak, topishmoq, she‘r, tush va hikoyalar to‘qish;
- asarlar matni yuzasidan tayyorlangan suratlar ustida ishslash;
- matn yuzasidan berilgan savol-topshiriqlar bo‘yicha og‘zaki va yozma ishlar berish mumkin.

Bunday topshiriqlarni sinfda va uyda almashtirib bajarish ham o‘quvchining tafakkuri hamda faoliyati mustaqilligini ta’minlaydi. Ma’naviyatini boyitadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi. –T., 2019. – 32 b.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Barkamol fayz media, 2018. – 352 b.
4. Matchonov S., G‘ulomova X., Suyunov M., Boqiyeva H. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. – T.: Yangiyul poligraph service, 2008. – 224 b.